



KITOBOXONLIK TARG'IBOTIDA NAVOIY ASARLARINING O'RNI

Nilufar Xamidova, XIU o'qituvchisi

Annotatsiya. O'quvchilar orasida kitobxonlikni targ'ib qilish maqsadida turli madaniy-ma'rifiy, intellektual tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. O'quvchilar va ularning ota-onalari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish va rag'batlantirish maqsadida ta'lim muassasalarida "Kitob taqdimoti", "Adabiyot kunlari", "Kitobim-ostobim" nomli ma'rifyt tadbirlar, ota-onalar ishtirokida "Bir farzandga – uch kitob" aksiyalarini hamda "Eng yaxshi kitobxon o'quvchi" va "Kitobxon maktab" tanlovlарini o'tkazish yo'lga qo'yilgan.

Kalit so'zlar: kitob, kitobxonlik, kutubxona, maktab, Alisher Navoiy tafakkur olami, ilm-ma'rifat manbai.

Abstract. Various cultural, educational, and intellectual events are being held to promote reading among students. In order to promote and encourage reading among students and their parents, educational events such as "Book Presentation", "Literature Days", "My Book is My Sun" have been organized in educational institutions, as well as "Three Books for One Child" campaigns with the participation of parents, as well as "The Best Reader" and "Book-Reading School" competitions have been organized.

Key words: book, reading, library, school, Alisher Navoi's world of thought, source of knowledge and enlightenment.

O'tmish tariximizda kitobga yoshligidan mehr qo'yib va undagi olam-olam sirlari va mo'jizali mazmunga ega fikrlardan bahramand bo'lgan mashhur va ulug' zotlar o'tganki, ularning tengi yo'q qobiliyatiga, qilgan ishlariga, ko'p qirrali



sermazmun ijodiy faoliyatiga qoyil qolasan kishi. Kitob va unga bo‘lgan samimiy munosabat, mutolaa madaniyati daho ijodkor Alisher Navoiy ijodida ayricha mehr va muhabbat bilan talqin etilgan mavzulardan biridir. Navoiy ilmiy, badiiy, tarixiy va didaktik asarlarida o‘z shaxsiy hayoti, ustozlari va zamondoshlari yoki badiiy qahramonlari vositasida bu boradagi fikrlarini izchil yoritadi. Alisher Navoiy tafakkur olami nihoyatda keng, go‘zal badiiy kashfiyotlari bilan chinakam adabiyot muhibini sehrlab qo‘yish maqomidagi qudrat sohibidir. Uning ayni maqomga noil bo‘lishida, shubhasizki, kitob bilan oshno bo‘lib, tunni kunlarga ulab, so‘z san’atining noyob namunalaridan bahra olganligi tayanch omil vazifani o‘tagan. Shu bois ulug‘ shoир o‘zining boy adabiy, ilmiy merosida kitobxonlikka mayli nihoyatda erta uyg‘onganligi va umri davomida shu mayl unga ruhiy-ma’naviy quvvat berib kelganligi bilan bog‘liq adabiy lavhalar-u mulohazalarga o‘rin ajratadi. Shu bilan bir qatorda, ulug‘ shoирning nazmiy badiiyat namunalariyu nasrda bitilgan asarlarida o‘rni bilan ilmga rag‘batning badiiylashtirilishi, tolibi ilm obraziga murojaat etilishi, ulug‘ shayxlar-u donishmandlar obrazining yaratilishi ham kuzatiladiki, bularning bari Navoiy nazdida kitobxonlikning inson ma’naviy kamolotida o‘rni nihoyatda muhimligiga ishoradir. Biz bu ishoralardan ayrimlarigagina murojaat etish bilan ularning ulug‘ shoир dunyoqarashiga ko‘ra ahamiyatlik darajasini muayyanlashtirishga harakat qilamiz. O‘ylaymizki, navoiyona tafakkur va taxayyul mahsullari bo‘lgan bu “ma’rifiy qurol”lar yoshlarimizning kitobxonlikka bo‘lgan rag‘batini oshirishga beminnat xizmat qiladi.

Ulug‘ bobokalonimiz Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning turkiy va forsiyda bitgan o‘lmas asarlari, allomaning hayot yo‘li asrlar osha dunyo xalqlariga ibrat namunasi bo‘lib kelmoqda. Turkiy tillar, xususan, o‘zbek adabiy tilining mustahkam poydevorini yaratgan Alisher Navoiy buyuk alloma sifatida xalqimiz, millatimiz ma’naviyatining quyoshi sifatida asrlar osha nur sochib kelmoqda, desak ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.



Holbuki, “kitob”, “kitobxonlik”, “kutubxona” va “maktab” so‘zlarining o‘zagida bir maqsad – inson ma’naviyatini boyitish, uni ezgulikka chorlash, bir so‘z bilan aytganda chin odamiylikka yo‘g‘rilgan komil inson tarbiyasiga intilish, mukammallik kabi g‘oyalarni mujassamlashtirgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Kitob – tunganmas xazina, undan olingan bilimlarni inson umrining oxirigacha ham sarflay olmaydi. Har bir kishi uchun undan yaqin hamroh, do‘sit va maslahatchi yo‘q. Shuning uchun ham xalqimiz uni nonday aziz, muqaddas deb e’zozlaydi.

Ayni paytda, muhtaram Prezidentimizning xalqimizni, ayniqsa, yosh avlodni kitob mutolaasiga, kitobxonlik madaniyatini oshirishga chorlovchi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komsiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi hamda “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarni tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorlarining e’lon qilinishi yurtimizda kitobxonlik davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini anglatadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yoshlar tarbiyasida kitobxonlikning o‘rni beqiyos. Kitobni sevadigan, doim kitob mutolaasi bilan mashg‘ul yoshlarda to‘g‘rigo‘ylik, halimlik, mulohazakorlik,adolatpeshalik, illatlarga murosasizlik, mantiqiy fikrlay olish fazilatlari ko‘rinib turadi. Shuning uchun yoshlarni ana shu fazilatlarni tarbiyalaydigan kitoblarni ko‘proq o‘qishga rag‘batlantirib borish, mutolaa jarayonining talablariga rioya etishga o‘rgatib borish lozim. Negaki, zarur ma’naviy ozuqa olish uchun yaxshi, tarbiyada foydasi tegadigan kitoblarni tanlay bilish ancha-muncha mas’uliyat talab qiladi. Yovuzlik, zulm-zo‘ravonlik, axloqsizlikni targ‘ib etadigan kitoblar ham bor. Missionerlik, ommaviy madaniyatni targ‘ib etadigan kitoblar ta’siridan yoshlarimizni asrash juda muhim



vazifa. Bu vazifani bajarish uchun kitob targ‘ibotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, yoshlar tarbiyasida kitobning ahamiyatini oshirib borishimiz zarur.

Kitob mutolaasi kishi aqlini charxlaydi, bilimini boyitadi, yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalaydi. Barcha zamonlarda kitob ma’naviy mulk, bebafo xazina sifatida ardoqlangan, ilmiy, siyosiy, iqtisodiy, falsafiy, tarixiy kitoblar yaratilgan, ularning avlodlardan avlodlarga yetib borishi haqida qayg‘urilgan. O‘tmishda yashab o‘tgan buyuk siymolar ilm-ma’rifat manbai bo‘lgan kitoblar yaratib, bizga buyuk meros qoldirishgan. Bu kitoblar orqali hozirgi yosh avlod dunyo ilm-fani, madaniyati taraqqiyotiga ajdodlarimiz qo‘shtigan hissa beqiyos bo‘lganligini his etishadi va bundan g‘ururlanishadi. Alisher Navoiy ijodi, uning bizgacha yetib kelgan asarlari jam bo‘lgan kitoblar bugungi kunda har bir xonadonda bo‘lishi, ularni sevib mutolaa qilish qat’iy odatga aylanishi shart. Chunki mustaqillik tufayli Alisher Navoiy ijodi xalqimizga to‘liq yetib bordi, u yaratgan asarlar mazmuni va mohiyatini to‘g‘ri anglash, talqin qilish, tadqiq etish imkoniyati paydo bo‘ldi. Buyuk so‘z san’atkori asarlarini yuzaki o‘qish, biryoqlama tahlil etish, mazmun va mohiyatini buzib talqin qilish o‘tmishda mafkuraviy tazyiqlar tufayli ataylab qilindi. Vaholanki, Alisher Navoiy asarlarini mutolaa qilgan kishi ularda tafakkur qudrati behad bepoyon ekanligiga, mutafakkir shoirning axloqiy-ta’limiy qarashlari barkamol avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishdek ulug‘ ezgu ishimizda hamisha kamarbasta bo‘la olishiga iqror bo‘ladi.

Alisher Navoiyning iqtidor va qobiliyat haqida ibratli fikrlarini deyarli barcha asarlarida uchratish mumkin. “Farhod va Shirin” dostonida Farhod kitobxon ko‘z o‘ngida iqtidori yuksak darajada bo‘lgan o‘ta qobiliyatli shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. U ilm olishda, hunar o‘rganishda o‘z iqtidori va qobiliyatini ko‘rsatadi. Uning zehni shu qadar o‘tkirki, kitobning varag‘ini bir o‘qib chiqqandayoq uning butun mazmuni yodida qoladi, uni qayta o‘qib chiqishga aslo hojat qolmaydi. Shu sababli qisqa vaqt ichida u bilmaydigan ilm dunyoda qolmaydi. Ilmni o‘rganibgina



qolmay uni hayotga tatbiq etishni ham o‘rganadi. O‘n yoshida unda yigirma yoshli yigitning kuch-g‘ayrati, aqliy barkamollik bo‘ladi. Uning mакtabda olgan bilimlari, ko‘p kitob mutolaa qilgani keyinchalik Arman o‘lkasiga borganida juda asqotadi. Besutun tog‘ida necha yillar mamlakatga suv keltirish uchun mashaqqat chekib yotgan kishilarning mushkulini oson qiladi. Ularning uch yil ichida qilgan ishlarini u uch kunda amalga oshiradi. Me’mor Boniy, naqqosh Moniy, tosh yunuvchi Qorandan o‘rgangan hunarlari, olgan bilimlari Farhodning nihoyatda zukko, iqtidorli, qobiliyatli inson bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Alisher Navoiy butun hayoti davomida adolatsizlikka qarshi kurashgan, amaldorlarning o‘z vazifalarini suiiste’mol qilishlarini va ta’magirliliklarini fosh etdi, ojiz, muhtoj kishilarni o‘z himoyasiga olishga intilgan. U o‘zining mazmunli hayoti bilan o‘rtta asrdagi Uyg‘onish davrining xalqparvar, adolatparvari, ulug‘ zoti sifatida butun hayoti bilan haqiqiy inson qanday bo‘lishi lozimligini ko‘rsatdi. Uning ijtimoiysiyoziy, ma’naviy-madaniy faoliyatida komil insonga xos barcha xususiyatlar amaliy tarzda mavjud bo‘lgan, badiiy ijodida bosh masala sifati aks etgan:

Odamiy ersang demagil odami,

Oniki yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Mazkur bayt shoир dunyoqarashi va insonparvarligining markaziy nuqtasi desak, hech yanglishmaymiz. Xalqparvar shoир butun umri bo‘yicha insonparvarlikni, odamiylikni kuylab, uni ulug‘lab o‘tgan va yuqorida ta’kidlagan shiorga amal qilgan. Xalq g‘amida bo‘lish, barcha mo‘minlarga yaxshilik qilish, muruvvat ko‘rsatish bu buyuk zot shaxsiyatining mazmuni bo‘lgan. Shu bois uning qabri toshida “Shohi g‘aribon”, ya’ni g‘ariblar, yolg‘izlar, faqirlar shohi deb, bejiz bitilmagan. Chunki u butun hayoti davomida, umrining so‘ngi davrigacha xalqining farovonligini, tinchlik-osoyishtaligini o‘ylagan, bu yo‘lda fidoyilik qilgan. Xullas, Nizomiddin Mir Alisherni shaxsiyati va ma’naviy dunyoqarashiga



xos xususiyatlarni yoritishda XX asr navoiyshunoslarning asarlarida ajoyib nazariy fikrlar yuqorida qayd etilgan dalillar bilan asoslangan. Uning kitobga bo‘lgan havasi va kitobxonlikdan boshlangan ko‘pqirrali va sermazmun ijodiy faoliyati bog‘liq shaxsi va ma’naviy dunyoqarashi yashash tarzi, kunlik hayotidagi saxovatli ishlari kabi, badiiy ijodida ham adolatli tuzum haqidagi, tinch va farovon hayot sohasidagi orzu umidi to‘liq aks etgan. Uning shaxsiyatidagi va ma’naviy qarashlari hozir ham elimiz, xalqimiz uchun namuna sifatida o‘z qadr-qiyomatini saqlab kelmoqda, umuman, asrlar osha o‘z ahamiyatini va hayotiylik qiyomatini yo‘qotmay qalblarda saqlanib kelmoqda. Bu buyuk insonning tavvalud etganiga necha asrlar o‘tsa-da, bitgan asarlari amalga oshirgan ishlari, uning shaxsi va dunyoqarashi tirik siymosi ko‘z oldimizda, oramizda, davramizda, suhbatimizda, yaratilayotgan ilmiy tadqiqotlarimiz bilan ham hamisha birgadir.

Mutolaa fikrni, zehnni, fasohatni charxlaydi. Shuning uchun mutolaa jarayonida muallifning tildan foydalanishdagi mahorati, badiiy manzaralarning hissiy ta’siriga e’tibor qaratish zarur. Kitobxonlik darajasini oshirish, mutolaa madaniyatini yuksaltirishning asosiy talablari ham shu. Milliy adabiyotimizda kitobxonga zavq-shavq bag‘ishlaydigan, ruhiy-ma’naviy quvvat beradigan, ona tilimiz go‘zalligi, nafisligi, latofati va boyligini ko‘z-ko‘z etadigan asarlar ko‘p yaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, kitob mutolaasi – ko‘ngil ozuqasi, kitob esa ko‘ngillarni yoritguvchi chiroq. Uning bosh vazifasi – inson qalbida ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat, yangilikka rag‘bat, g‘o‘zallikka intilish tuyg‘larini uyg‘otish ekan, har soniya kitob o‘qishga intilishimiz, o‘qiganda ham kitobni tanlab, eng yaxshi, eng saralarini o‘qishimiz lozim. Zotan, kitob mutolaasi bilan ko‘nglimiz orom oladi, qalblarimiz taskin topadi, dunyoqarashimiz boyiydi, ruhan va ma’nan yana bir pog‘ona yuksaklikka erishamiz.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. – Toshkent: Fan, 1991-1997. 2.
2. Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at. – Toshkent: Sharq, 2016.
3. Bibliografiya (umumiy bibliografiya) / madaniyat, san’at va pedagogika kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma/ Z.Berdiev, H.Mamatraimova, T.Zokirova. T. 2014
4. Kutubxonashunoslik / kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv-qo‘llanma/ Z.Sh.Berdiev. T. 2013